



ABDULLA ORIPOV GENETIKA SHE'RIDA TARIXIY SHAXSLARNING IFODA TASVIRI

Salomova Diyora Vahob qizi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
2-bosqich bakalavr talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-april 2023 yil

Ma'qullandi: 10-april 2023 yil

Nashr qilindi: 15-april 2023 yil

KEY WORDS

*Psixologik tasvir, motiv,
kulminatsion nuqta, genetika,
tarixiy shaxslar tasviri.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Abdulla Oripov “Genetika” she’rida tarixiy shaxslarning ifoda tasviri xususida fikr va mulohazalar yuritilgan. Maqolada Abdulla Oripovning she’riy misralarda psixologik tasvir mahorati bilan tarixiy shaxslarning uyg’unlikda ifodalanishi kuzatiladi.

O'tgan asrning 60-yillarida O'zbek she'riyatining ma'lum bosqichlar asosida rivojlanishga qadamba-qadam o'tib borishini kuzatish mumkin. Shuningdek, ijtimoiy mafkura va milliy qadryatlar to'qnashgan bu davrda she'riy misralar ham o'zgacha bir tarovatni kasb etgan. Abdulla Oripov qalamiga mansub “Genetika” she’ri yaratulganidan buyun adabiyot ixlosmandlari tomonidan tahlil qilinib, she’rning ahamiyatli yuzasidan turli ko’z qarashlar mavjud. Lirik ijodning rivojlanishi, she’riy misralarda kulminatsion satrlar yoki mavjud she’rning qanday ruhiyatda yaratilgan ekanligi adabiy jarayon vakillari orasida atroflicha mulohazalarga sabab bo’lgan. Abdulla Oripov o’zining ushbu she’rida, an’anaviy barmoq vaznining o’ziga xosligini ko’rsatish barobarida tarixiy voqeliklar, shuningdek tarixiy shaxslar nomlarini ham keltirib o’tadi. Tabiiyki, bu holat she’r satrlarining ta’sirchanlik darajasini oshirib beradi. Bunda: Bobo Kayfiy, Mirzo Ulug’bek, Muqanna, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shiriq, Eryigitov, Rahimov, Alisher Navoiy, Pushkin, Matrasov va boshqalarni keltirib o’yadi. Shuni unutmaslik lozimki, Abdulla Oripovning “Genetika” she’ri kelajak avlodlarga chaqiriq yang’lig’ jaranglaydi. Yuqorida nomlari keltirilgan tarixiy shaxslarning o’z davrida vatan, xalq, el va millat yo’lida xizmat qilgan ekanliklarini she’riy satrlar orqali yodga olgandan so’ng, kelajak avlodlarga yuzlanadi. “Biz avlodlardan nima qolar ekan” deya dunyo savdolari yana qalamga olinadi. Abdulla Oripov tasvir usulidan unumli foydalanib, misralarga o’zgacha jilo bera olgan. Abdulla Oripov psixologik holatlar tasvirini hayot bilan bog’laydi.

“Oripov o’zbek she’riyatiga o’tgan asrning 60-yillarida sobiq sovet jamiyatida esa boshlagan yangi shabadaning elchisi sifatida kirib keldi. U dastlabki she’rlaridan boshlab milliy she’riyatda yangi poetic tafakkurning qaror topishi yo’lida ijod qildi; turmushda paydo bo’la boshlagan yangicha qarashlar, kishilarning ruhiy olamidagi evrilishlar, fikr va xatti-harakat erkinligiga bo’lgan ehtiyoj Oripov she’rlarining g’oyaviy mundarijasini belgilab berdi”. [1]
“Bunda odamzotning hayot jilg’alarida suzgani holda, shu dunyo ishlariga mas’ul shaxs

sifatida hayot o'tkazuvchi tirik jon sifatida tasvirlab, mehnat teri bilan qotgan tuproqda orom izlab yashash zavqini qistirib o'tadi. Ushbu she'rning 1973- yil yaratilgan ekanligini inobatga olsak, yuqoridagi tasvirlar orqali jahon urushi oqibatlariga urg'u berib o'tgan bo'lishi ham mumkin. Abdulla Oripov birgina "genetika" she'ri orqali butun bir olam, yer sayyorasida yuz bergan to'fon va falokatlardan song birgina tuyg'u, vatan tuyg'usi haqida so'z yuritishi orqali adabiy tasvirlarni yanada chiroyli tarzda izohlab bergan.

"Nima qolar ekan? Qay ezgu tilak,
Qay his – yuraklarda topolgan kamol?
Yiroq avlodlarga bizlardan beshak
Qolar kurashlarda toblangan xayol".

Haqiqatdan ham, ijodkorning adabiy jarayondan nisbatan oldingi so'zlashuv uslubiga muvofiq keluvchi so'zni qo'llashi orqali biro ma'no nozikligini ifoda etishga qaratilgan ekanligini sezish mumkin. Chunki, Abdulla Oripov yashagan davrda qolgusi so'zining muqobili sifatida qolg'usi so'zi ishlatilishinisbatan e'tibordan qolgan edi degan xulosalarga kelish mumkin. Ushbu she'rning 1973- yaratilgan ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, so'zimiz bir muncha to'g'ri ekanligi oydinlashadi. Shu o'rinda adabiy termin va qo'shimchalar, istilohlar, so'z qo'llash bilan bog'liq ifodaviylikning ahamiyatlilik darajasi she'rni va she'riy parchalarni yanada teran tahlil etishga chorlaydi.

"A. Oripovning san'atkorligi shundaki, u hodisalarning boshqalar payqamagan jihatlarini o'ziga xos tarzda aks ettira oladi. Shoir iste'dodi, nazarining o'tkirligi, tuyg'ularining nozikligi, hissiyotining teranligida ko'rinadi".[2] Ijodkor keyingi misralarda dunyo ishlarining kichik bir sohasiga bo'lsada mas'ul shaxs bo'lib yashaganini, ushbu mehnatlari ortida (umum xalq mehnat faoliyati nazarda tutilyapti)xalqlar va elatlarning tinch va forovon hayot kechirganini, chashmadek ko'z yoshlar to'kilmasligi uchun kichik bir xizmat qila olgan ekabligidan baxtiyorlik hissi mabjud. Shuningdek, ibodkor aytmoqchiki, oromga bo'lgan sog'ich humori kishilarning ish faoliyatiga o'zini bag'ishlashlariga olib keldi deya mulohazalar yuritadi. Albatta, kitobxon va muallaif o'rtasida oltin ko'priq vazifasini bajaruvchi she'r va she'riy satrlar har bir kishining shaxsiy, qolavers ijtimoiy hayotdan ortdirilgan xulosalari orqali yuzaga keladi. Abdulla Oripov manashunday ma'no nozikliklarini barmoq vazni orqali kitobxonga yetkazar ekan, har bir qatorlarda kelgan so'zlar o'n bir bo'g'in asosida tashkil topishida mohir ijodkorlik salohiyatini ko'rsata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mulkamalov Sobir Orol o'g'li "Abdulla Oripov hayoti va ijodi" maqola. Ta'lim fidoiylari. Reandpub.com -2022
2. Yo'ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshibekov Jalolbek. Adabiyot 9-sinf uchun darslik. Abdulla Oripov she'riyati. Toshkent:. "O'zbekiston" NMIU -2019